



AVTOMOBIL TEXNIKALARI BILAN YUZ BERISHI MUMKIN BO'LGAN HODISALAR VA ULARNI OLDINI OLISH BO'YICHA TADBIRLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18512816>

Djurayev Rinat Ravshanovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi, Toshkent shahar, rinat14ultimate@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada avtomobil texnikalari bilan yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalar va ularni oldini olish bo'yicha tadbirlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tezlik, baxtsiz hodisa, qurbonlar, yo'l transport hodisasi, infratuzilma, GIS, yo'l belgilari, o'choqlar, bordyur, pandus, texnologiya, favqulodda tormoz tizimi, xavf-xatarlar, ehtiyotkorlik.

Аннотация: В этой статье представлена информация о возможных инцидентах с автомобильным оборудованием и мерах по их предотвращению.

Ключевые слова и фразы: скорость, авария, жертвы, дорожно транспортные происшествия, инфраструктура, ГИС, дорожные знаки, опасные зоны, бордюры, пандусы, технологии, система экстренного торможения, опасности, осторожность.

Abstract: This article provides information on possible incidents with automotive techniques and measures to prevent them.

Keywords: speed, accident, victims, traffic accidents, infrastructure, GIS, road signs, hot spots, curb, ramp, technology, emergency braking system, hazards, caution.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda yo'l-transport hodisalarining oldini olish borasida ko'plab chora-tadbirlar ko'rilmogda. Ammo shunga qaramay, bu borada ijobiy o'zgarishlar ko'p, deb bo'lmaydi. Achinarlisi, ayrim haydovchilar yo'l harakati qoidalarini buzishda davom etmogda [1].

Avtomobil texnikalari bilan yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalar asosan yo'l-transport avariylari, texnik

nosozliklar, yong'inlar va ekologik muammolar bilan bog'liq.

O'zbekistonda sodir bo'layotgan yo'l transport hodisalarining o'ziga xos jihati unda piyodalar ishtirokining ko'pligi. Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, respublika hududida yiliga o'rtacha 9-10 ming yo'l-transport hodisalari sodir bo'ladi. Ulardan ikki mingdan ortig'ida insonlar halok bo'lmoqda. 2018 yilning o'zida O'zbekistonda 2 ming 262 nafar kishi



YTH qurboni bo'lgan. 2019 yilda O'zbekistonda sodir bo'lgan yo'l transport hodisalarining qariyb yarmi 3565 piyodalar ishtirokida sodir bo'lgan. Jami halok bo'lganlarning ham qariyb yarmi 801 nafari piyodalarga to'g'ri keladi [5].

Avtomobil texnikalari bilan yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalar ko'p qirrali va jiddiy oqibatlarga olib keladi. Ularni kamaytirish uchun muntazam texnik xizmat, haydovchi intizomi, yo'l infratuzilmasini yaxshilash va xavfsizlik vositalaridan foydalanish zarur. Shu bilan birga, ekologik choralar va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ham muhim ahamiyatga ega.

So'nggi o'n yillikda yo'llarda transport vositalarining zichligi, yo'l harakati, tirbandlik va baxtsiz hodisalar ko'paydi. Yo'l harakatini nazorat qilish va yo'l-transport hodisalarini kamaytirish uchun mamalakatimizda an'anaviy usullardan, ya'ni svetoforlar, yo'l belgilari, yo'l patrul xizmatidan foydalaniladi. Ammo bu usullar kundankunga eskirib bormoqda. Texnologiyalar davrida transportni boshqarish va baxtsiz hodisalarni kamaytirish uchun aqlli va moslashuvchan uskunalardan foydalanish kerak. O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, yo'l-transport hodisalarining oldini olish, ularda halok bo'lganlar va jarohatlanganlar sonini kamaytirishga qaratilgan qator qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.04.2022-yilda qabul

qilingan "Yo'llarda odamlar xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-190-sonli qarori shular jumlasidandir.

Shularda kelib chiqib zamonaviy avtomobil texnikalarini o'rganishga bo'lgan talablar kuchayib bormoqda. Zamonaviy avtomobil texnikasi – bo'linmaning harakatchanligi moddiy negizi bo'lib, ularning tezkor harakatlarini ta'minlashning asosiy vositalaridan biridir. Boshqacha qilib aytganda, "g'ildiraklar" siz birorta bir bo'linma o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajara olshini murakkablashtiradi.

Agar ikkinchi jahon urushi yillari davrida avtomobillar, asosan transport vositasi sifatida ishlatilgan bo'lsa, hozirgi vaqtga kelib nafaqat transport vositasi sifatida balki ta'mir bo'lim asbob-uskunolari, maxsus lokatsion-aloqa vositalari, muhandislik jihozlar va boshqa turdagi uskunalar o'rnatiladigan bazaviy texnika sifatida keng qo'llanilmoqda. Avtomobil texnikalari bilan yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalar asosan yo'l-transport hodisasidir.

Yo'l-transport hodisasi bir qancha mudxish oqibatlarga olib kelishi mumkin, jumladan, o'lim, asorati jiddiy bo'lgan jarohatlar, daromadni yo'qotish va hokazo. 2021 yilda mamlakatimizda piyodalar o'tish joylaridan o'tayotgan piyodalarni urib yuborish bilan bog'liq 1150 baxtsiz hodisa (11,5%), piyodalarning yo'lining belgilanmagan



qismidan o'tishlari tufayli 1380 baxtsiz hodisa (13,8%), 2009 tasi yo'l harakati boshqaruvidagi muammolar tufayli (20,1%), 501 tasi (5%), bolalarni qarovsiz qoldirish natijasida sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar, 610 tasi (6,1%) velosipedchilarning velosiped yo'lagi bo'lmagan joylarda harakatlanishi, 402 tasi (4%).) svetofor yoki yo'l belgilariga amal qilmagan haydovchilar ortidan, 912 ta (9,1 %) haydovchilarning tajribasizligi sababli, 792 tasi (7,9 %) qarama-qarshi yo'nalishga chiqish, 100 tasi (1 %) avtomobilni boshqarish vaqtida telefondan foydalanish natijasida sodir bo'lgan, 2010 tasi (20,1 %) belgilangan tezlik me'yoriga rioya qilmaslik, 135 tasi (1,4 %) avtomobilni mast holda boshqarish oqibatida YTH sodir etilgan.

O'zbekiston Respublikasi shaharlari va aholi punktlarida transport harakatining ruxsat berilgan eng yuqori tezlik 70 dan 60 km/soatgacha pasaytirildi. Bunga sabab ommaviy axborot vositalarida deyarli har kuni O'zbekistonning turli hududlarida sodir bo'lgan yo'l-transport hodisalari soni yildan-yilga ko'payayotganligi bilan bog'liq bo'ldi, achinarlisi, ularning aksariyati o'lim bilan yakun topmoqda. Fuqarolar yo'llardagi vaziyat, transport inratuzilmasi sifati, aholining, ayniqsa, bolalar va yoshlarning yo'l harakati qoidalarini bilish darajasidan xavotirda [2].

Yo'l-transport hodisalari statistikasi bo'yicha aniqlashtiradigan bo'lsak, O'zbekistonda har yili minglab YTH

sodir bo'ladi, ulardan katta qismi o'lim yoki og'ir jarohatlanish bilan yakunlanadi. Buning sabablari: 1. Haydovchilarning tezlikni oshirishi va qoidalarga amal qilmasligi. 2. Mast holda transport boshqarish. 3. Yo'l infratuzilmasining yetarli darajada xavfsiz emasligi (belgilar, svetoforlar, yoritish). 4. Oqibatlari: inson talofatlari, moddiy zarar, transport oqimining to'xtashi.

Mavjud vaziyat tahlili ham shunga ishora bermoqda. O'zbekiston IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmati ma'lumotlariga ko'ra, qayd etilgan yo'l transport hodisalarning 51,4 foizi sub'yektiv sabablarga ko'ra sodir etilgan, ya'ni haydovchilar yo'l harakati qoidalariga e'tibor bermasligi oqibatida kelib chiqqan. 2024 yilda 9 ming 364 ta yo'l-transport hodisalari sodir etilishi oqibatida 2 ming 203 nafar inson halok bo'lgan va 8 ming 901 nafar inson tan jarohati olgan. O'tkazilgan o'rganishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yo'l harakati qoidabuzarliklari uchun amaldagi qonun hujjatlarida ta'sir ko'rsatuvchi omillar mavjud emasligi va bu bilan jazo muqarrarlari ta'minlanmagani yo'l transport hodisalari ko'payishining asosiy sabablaridan ekanligi aniqlangan [3,4].

Texnik nosozliklar quyidagilar bo'lishi mumkin: 1. Tormoz tizimi muammolari: eng xavfli nosozliklardan biri, avariya bevosita sabab bo'lishi mumkin. 2. Shinalar portlashi: yuqori tezlikda sodir bo'lsa, transport vositasi



boshqaruvdan chiqadi. 3. Elektr tizimidagi nosozliklar: qisqa tutashuv, yong'in xavfi. 4. Yonilg'i tizimidagi oqishlar: portlash va yong'inga olib kelishi mumkin.

Yong'in va portlash hodisalari quyidagilar bo'lishi mumkin: 1. Yonilg'i bakidagi oqishlar yoki elektr qismlarining nosozligi natijasida yuzaga keladi. 2. Avtomobil ichida o't o'chirgich bo'lmasa, yong'in tezda katta zarar keltiradi. 3. Transport parklarida xavfsizlik qoidalariga rioya qilinmasa, ommaviy yong'inlar sodir bo'lishi ehtimoli yuqori.

Ekologik muammolar quyidagilar bo'lishi mumkin: 1. Chiqindi gazlar: havoni ifloslantiradi, inson salomatligiga zarar yetkazadi. 2. Moy va yonilg'i oqishlari: tuproq va suvni zaharlaydi. 3. Shovqin ifloslanishi: katta shaharlar uchun dolzarb muammo.

Favqulodda vaziyatlar quyidagilar bo'lishi mumkin: 1. Tabiiy ofatlar: zilzila, suv toshqinlari paytida transport vositalari ishdan chiqishi yoki avariya sabab bo'lishi mumkin. 2. Texnogen hodisalar: zavod va ishlab chiqarish hududlarida transport vositalarining portlash yoki yong'inlarda ishtirok etishi.

Avtomobillar bilan yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalar va ularni oldini olish bo'yicha tadbirlar:
1. Avtomobillar bilan yuz berishi mumkin bo'lgan barcha hodisalar, halokatlar, avariya, buzilishlar va baxtsiz hodisalarga bo'linadi.
2. Avtomobillarning shikastlangan

darajasiga qaramasdan ketidan odamlarning qurbon bo'lishini keltiruvchi avtomobil bilan yuz bergan hodisa halokat hisoblanadi. 3. Avtomobillarning shikastlangan darajasiga qaramasdan ketidan odamlarning tan jarohatini (jarohatlanishini) keltiruvchi avtomobil bilan yuz bergan hodisa, shu jumladan, avtomobil shikastlanib, ro'yxatdan chiqarilishi lozim yoki avtomobilni tiklanishi uchun kapital yoxud o'rta ta'mirlash talab etiladi yoki avtomobilni bitta asosiy agregatining almashtirilishi (kapital) ta'mirlanishi kerak bo'lgan hodisa avariya hisoblanadi. 4. Avtomobillarning shikastlanishiga olib kelgan hodisa buzilish hisoblanadi, bunda uni bartaraf etish uchun avtomobilning asosiy agregatlarini almashtirmasdan yoki ularni kapital ta'mirlamasdan joriy ta'mirlashni amalga oshirish zarur. 5. Haydovchining aybi bilan emas sodir bo'lgan odamlarning qurbon bo'lishi yoki tan jarohatini keltiruvchi avtomobil bilan yuz bergan hodisa baxtsiz hodisa hisoblanadi. 6. Avtomobil va uning agregatlarining qo'shimcha ravishda shikastlanishlariga olib kelmagan detallar va alohida yig'ma birliklarning tabiiy yeyilishi hamda avtomobillarlarning shikastlanishlari avariya va buzilishlarga kirmaydi.

Avtomobil texnikasi bilan yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalarni oldini olish bo'yicha asosiy tadbirlarga quyidagilar kiradi: bo'linmalarda qat'iy nizom tartib, uyushqoqlik va barcha shaxsiy tarkibning biriktirilgan



avtomobillar uchun yuqori mas'uliyatini saqlab turish; shaxsiy tarkib tomonidan avtomobillarni, ularni ishlatish va ta'mirlash qoidalarini muntazam ravishda o'rganishi; haydovchilar tarkibi tomonidan avtomobillarni boshqarish ko'nikmalarini doimiy ravishda takomillashtirish; yo'l harakati qoidalarini va avtomobillarni kolonnalarda boshqarish qoidalariga aniq amal qilish; marshlarni puxtalik bilan tashkillashtirish, yo'nalishlarni tayyorlash va jihozlash, tungi sharoitlarda harakatlanish xususiyatlarini hisobga olish; boshliqlarning yuqori talabchanligi, avtomobillarni ishlatish va ta'mirlash qoidalariga amal qilish hamda yo'nalishlarda haydovchilarning ishlashi ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish; avtomobillarni ishlatishga oid belgilangan tartib hamda parklarda ichki xizmatning talablariga qat'iy amal qilish; bayram va dam olish kunlari avtomobillardan foydalanishni cheklash; avtomobillarga o'z vaqtida va sifatli texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash; avtomobillarni hodisalarsiz ishlatishga oid ilg'or tajribani tizimli umumlashtirish va joriy etish; har bir hodisa bo'yicha muayyan choralar ko'rish, ularni shaxsiy tarkib bilan puxta muhokama qilish; haydovchilarning har tomonlama tekshiruvlarini o'tkazish

intizomsiz va yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lmagan hamda tibbiy ko'rsatkichlar bo'yicha noliyiq haydovchilarni avtomobillar boshqarishdan chetlashtirish; avtomobillarni hodisalarsiz ishlatishda erishgan muvaffaqiyatlari uchun shaxsiy tarkibni rag'batlantirish; nazorat-texnik punktlarining ishlashini to'g'ri tashkillashtirish hamda ularni texnik nuqtai nazardan yaxshi tayyorgarlikka ega va talabchan mutaxassislar bilan butlash; intizomni va ularga biriktirilgan texnika uchun hamda avtomobillarda tashilayotgan odamlarning xavfsizligi uchun yuksak shaxsiy mas'uliyat his etishini oshirishga qaratilgan haydovchilar bilan reja asosida va muntazam tarbiyaviy ishlar; avtomobillardan foydalanish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va avariyasiz ishlashning ilg'or metodlarini muhokama qilgan holda yig'ilish va texnik anjumanlar o'tkazish va boshqa tadbirlar.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, avtomobil texnikalari bilan yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalar asosan yo'l-transport avariylari, texnik nosozliklar, yong'inlar va ekologik muammolar va ularni oldini olish bo'yicha tadbirlari hozirgi kunda ham muhim darajadagi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati rasmiy sayti <https://senat.uz/oz/controlactivity/post-1283;>



2. To‘raboyev Holmurod Rustamjon o‘g‘li, Anvarjonov Rustamjon Akmaljon o‘g‘li ASAKA TUMANIDAGI YO ‘NALISHLI TRANSPORTLARNING YO ‘NALISHLARINI OPTIMALLASHTIRISH. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON ADVANCE SCIENCE AND TECHNOLOGY (Vol. 1, No. 5, pp. 59-66).

3. Turaboyev, K., & Anvarjonov, R. (2024). ANALYSIS OF TRANSPORT DIRECTIONS ON THE ROUTE IN ASAKA CITY. Technical science research in Uzbekistan, 2(4), 75-78.

4. Toraboyev, X., & Alijonov, S. (2024). BASED FORMATION OF CITY PUBLIC TRANSPORT IN THE CASE OF ANDIJAN CITY. Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2(5), 12-16.

5. <https://sudex.uz/?p=6152>